

„ KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH BO‘YICH KO‘RILGAN CHORA-TADBIRLAR ”

Mirzayev Bahodir Otamurodovich

Samarqand viloyati Yuridik Tehnikumi talabasi

Ishlatilgan kalit so‘zlar: *kambag‘allikni qisqartirish, infrastrukturani rivojlantirish, tadbirkorlik, prezident, urbanizatsiya jarayon,*

Annotasiya: *Maqolada kambag‘allikni bartaraf qilishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan islohotlar mazmuni yoritib berilgan.*

O‘zbekiston hukumatining kambag‘allikni qisqartirishdagi 4 ta asosiy yo‘nalishi ma‘lum qilindi. Bosh vazir o‘rinbosari Jamshid Qo‘chqorov hukumatning kambag‘allikka qarshi kurashishdagi asosiy yo‘nalishlarini ma‘lum qildi. Unga ko‘ra, qishloq xo‘jaligini isloh qilish, qishloqlarda tadbirkorlikni yaxshilash, infrastrukturani rivojlantirish hamda urbanizatsiyani qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi. Unda so‘zga chiqqan bosh vazir o‘rinbosari Jamshid Qo‘chqorov O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish borasida olib borilayotgan ishlar va kelgusi rejalar haqida gapirdi.

Bosh vazir o‘rinbosarining aytishicha, kambag‘allikka qarshi kurashishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu — ta‘lim va sog‘liqni saqlashdir. “Jahon banki bilan hamkorligidagi dasturimizning eng kata yo‘nalishi inson kapitalini rivojlantirish hisoblanadi”, — dedi u. Jamshid Qo‘chqorov O‘zbekiston hukumatining kambag‘allikka qarshi kurashishdagi asosiy yo‘nalishlariga to‘xtaldi. “Bugungi forumga kelgan xorijlik va qo‘shni davlatlardagi mutaxassislar bizga [kambag‘allikka qarshi kurashish borasida] belgilab olgan asosiy yo‘nalishlaringiz nimalar, deb savol berishdi. Birinchisi, qishloq xo‘jaligida unumdorlikni oshirish, qishloq hududlarida tadbirkorlikni rivojlantirish. Birinchi marta davlat rahbari tashabbusi bilan biz yer maydonlarini odamlarga 30 yillik ijaraga beryapmiz. Bir so‘z bilan aytganda, qishloq xo‘jaligida ijobiy o‘zgarishlarga erishish”, — dedi Qo‘chqorov.

Hukumat rasmiysining ta‘kidlashicha, ikkinchi yo‘nalish qishloq hududlarida sanoatni rivojlantirish hisoblanadi. “Uchinchi, infrastrukturani rivojlantirish — bir joydan ikkinchi joyga tovarlarni yetkazib berishni tezlashtirish, odamlarning mobilligini oshirish uchun harakat qilish. Shu bilan birga, odamlarni ichimlik suvi va uzluksiz elektr energiyasi bilan ta‘minlash. Bunda yashil texnologiyalardan keng foydalanish”, — dedi u.

Uning qayd etishicha, to‘rtinchi yo‘nalish urbanizatsiya jarayonidir.

“O‘zbekistonda qishloq aholisi qariyb 50 foizni tashkil qiladi, bu kata ko‘rsatkich. 50 foizlik urbanizatsiya darajasi bilan kambag‘allikni qanday barqaror ravishda kamaytirish mumkin, degan savol berilishi tabiiy. Shu sababli urbanizatsiya eng muhim yo‘nalishlardan biri”, — dedi Jamshid Qo‘chqorov. Ma‘lumot uchun, mazkur forum Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan hamkorlikda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi vakolatxonasi hamda BMT Bolalar

jamg'armasining O'zbekistondagi vakolatxonasi ko'magida tashkil etildi. Unda iqtisodchi olimlar, BMT, BMTTD, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, UNICEF, Osiyo taraqqiyot banki, FTA, GIZ kabi xalqaro tashkilotlarning jami 200 dan ziyod ekspertlari qatnashdi. Avvalroq, Bosh vazir o'rinbosari Jamshid Qo'chqorov mamlakatda kambag'allik darajasi kamayib borayotgani, biroq aholini ijtimoiy qo'llabquvvatlash bilangina uni qisqartirib bo'lmasligini ta'kidlagan edi u. "Kambag'allikni qisqartirish barcha vazirliklarning asosiy masalasiga aylansa, barqaror natijalarga erishamiz", — degandi u. Shu bilan birgalikda 2020 yil boshida Prezidentimiz kambag'allikni qisqartirish masalasini davlat siyosatining asosiy vazifasi sifatida belgilab berdi. O'zbekistonda kambag'al oilalar soni 1,3 mlnni tashkil etardi. Bu haqda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi taqdim etgan ma'lumotlarda keltirilgan. Hozirgi vaqtda esa "O'zbekistonda kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushdi. Bunga qaramay 2026- yilgacha kambag'allikni 2 baravarga qisqartirish kutilmoqda. 5 yillik Taraqqiyot strategiyasi loyahasiga ko'ra, 2026 yilga kelib O'zbekistonda kambag'allik darajasi 2 baravarga qisqartiriladi. Buning uchun 2,5 mln norasmiy ishchining bandligi legallashtiriladi, 700 mingdan ortiq ishsiz xotin-qizlar davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitiladi, imkoniyati cheklanganlarning bandligi 3 baravarga oshiriladi. Qolaversa, Ijtimoiy kodeksni qabul qilish ham rejalashtirilgan. Yil yakuniga qadar yangi tizim asosida 550 ming aholini o'qitib, kambag'allikdan chiqarish choralari ko'riladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.